

MA'NAVİY-AXLOQİY MADANIYATLILIK KOMPETENSIYASINI  
RIVOJLANTIRISH METODLARI

Zokirova Ma'suma Qahramon qizi

Turan International University Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi O'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy madaniyatlılik kompetensiyasını rivojlantırış metodları haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, ma'naviy tarbiya, axloq, axloqiy tarbiya, metod, tarbiya mazmuni.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методы развития компетенции духовно-нравственной культуры.

**Ключевые слова:** образование, нравственное воспитание, этика, нравственное воспитание, метод, содержание образования.

**Abstract:** This article discusses the methods of developing the competence of spiritual and moral culture.

**Keywords:** education, moral education, ethics, moral education, method, content of education.

Prezidentimiz Sh.M.Miromonovich ta'kidlaganlaridek: “Ta'lif-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lif standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarur”. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash1; - o'quvchilarda Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, axloqiy tarbiya kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chor tadbirdari to'g'risida”gi 1059-sonli qarori

- uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-on, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lif muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish; - aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish; - ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqini yemiruvchi illatlar, o'quvchilarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish; - uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish kabi bevosita ijtimoiy kompetensiyalar bilan bog'liq vazifalar belgilab berildi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jamiyatning har bir a'zosi uchun katta ahamiyatga ega. U shaxsning insoniylik fazilatlarini shakllantirishda, ma'naviy dunyosini boyitishda va jamiyatdagi axloqiy qoidalariiga amal qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar alohida e'tiborga loyiqdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish metodlari

1. O'quv metodlari:

O'quv jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirish juda muhimdir. Bu jarayon turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi, jumladan, ma'ruzalar, suhbatlar, seminarlar, va axloqiy mavzudagi darslar.

2. Tarbiyaviy suhbatlar:

Suhbatlar ma'naviy-axloqiy tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilar o'zaro muloqotda bo'lib, axloqiy qadriyatlar va ma'naviy mezonlar haqida chuqurroq bilimga ega bo'lishadi.

3. Amaliy mashg'ulotlar:

Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar hayotiy vaziyatlarda axloqiy qarorlarni qanday qabul qilish kerakligini o'rganadilar. Ular axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish va to'g'ri yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Namuna ko'rsatish metodi:

Pedagoglar va ota-onalar ma'naviy-axloqiy qadriyatlar namunasini ko'rsatish orqali tarbiya jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy hayotda axloqiy xatti-harakatlarni namoyish etish, yosh avlod uchun real namunani yaratadi.

5. O'yin metodi:

O'yin metodlari orqali bolalar axloqiy qoidalarni hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar. Bu metod bolalarning qiziqishini oshiradi va axloqiy tarbiya jarayonini yanada samarali qiladi.

6. Test-savolnoma metodi:

1. Tanaffus paytida siz yerda yotgan hamyonni topdingiz, hamyon ichida bir miqdor pulni ko'rdingiz, nima qilasiz?

- A) Pulni olaman, hamyonni joyida qoldiraman
- B) Hamyonni olib, o'qituvchi yoki kattalarga beraman
- C) Hamyonga tegmayman uni joyida qoldiraman

2. Sinfdosning doskada masala yechayotgan edi, qo'shishda xato qildi, Bilol buni ko'rib "voy ahmoq" dedi, Bilolning qilgan ishiga baho bering.

3. Sinfingizga yangi o'quvchi kelsa, u moslashib ketgunicha unga qanday yordam berasisiz?

4. Do'stingizni xafa qilib qo'ysangiz, undan kechirim so'raysizmi?
- A) Har doim birinchi kechirim so'rayman
  - B) ba'zida
  - C) kechirim so'ramayman

5. Sinf xonasiga uy vazifasini qilmoqchi bo'lib hammadan birinchi keldingiz, doska o'chirilmaganligini va partalar tagida qog'oz bo'laklarini ko'rdingiz, ushbu vaziyatda nima qilasiz?

6. O'rtog'ingiz uyg'a vazifani bajarmay keldi. Siz unga daftaringizdan ko'chirishga ruxsat berdingiz. Bu, sizningcha, yaxshilikmi?

7. Darsdan judayam charchagan holda avtobusda qaytyapsiz, yuqori sinfda o'qiydigan bola sizdan joy berishingizni so'radi, ushbu holatda nima qilgan bo'lardingiz?

8. Quyidagi berilgan gaplarni rost va yolg'onga ajrating:
    - a. Ob-havo yomon bo'lganda mактабга borish shart emas.
    - b. Yakshanba kuni dars tayyorlamasa ham bo'laveradi.
    - c. Oyim uyda yo'q paytlarida ham vazifalarimni bajarishim kerak.
    - d. Badiiy kitoblarni ko'p o'qish kerak.
    - e. Faqat bo'sh vaqtda telefonda o'yinlarni o'ynash yaxshiroq.
    - f. Darslarni o'z vaqtida bajarish kerak.
    - g. Birovning narsasini beruxsat olmaslik kerak.
    - h. Ayb ish qilganda darrov uzr so'rash kerak.
    - i. O'zidan kichiklarni hurmat qilish kerak.
  9. O'zingizning qiladigan ishingiz yoki xatti-harakatlaringizni qanday qilib amalga oshirishni rejalashtirasizmi?
  10. Har doim ota-onangiz,yaqinlaringizni nasihatlariga amal qilasizmi?  
A) har doim amal qilaman  
B) ba'zida amal qilaman  
C) kamdan-kam amal qilaman
- Xulosa qiladigan bo'lsak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishda turli metodlardan foydalanish tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi. Bu metodlar o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga, ularning shaxsiy ma'naviy dunyosini boyitishga yordam beradi. Shu bilan birga, ma'naviy tarbiya orqali jamiyatning umumiy axloqiy darajasini ko'tarishga hissa qo'shami.
- ### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:
1. Kamoldinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari, savollar, javoblar. -T.: «Talqin», -17-18-betlar.
  2. Mamadjanova N. A.Boshlang'ich sinf ingliz tili ta'limi jarayonida o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy madaniyatilik malakalarini shakllantirish metodikasi: ped. fanl. b. falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati - N., 2022.51 b.
  3. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. "Toshkent", "Moliya" 2003y 172-bet.
  4. Shermuhamedova S. va boshqalar. Tarbiya. Umumiy o'rtalik maktablarning 4-sinf o'quvchilari uchun darslik. -T.: «O'zbekiston» NMIU, 2022.
  5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)